№-sonli MIKROQARZ SHARTNOMASI

Toshkent sh. **y.**

Biz **MChJ** keyingi o’rinlarda matnda «Lombard» nomidan Ustav asosida xarakatlanuvchi direktori , bir tomonidan, xamda O’zbekiston Respublikasi fuqarosi pasport (fuqarolik pasporti yoki identifikatsiya ID-karta, yangi namunadagi milliy haydovchilik guvohnomasi, O’zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo’lmagan shaxslarning yashash guvohnomalari yoki ID-kartalari, harbiy bilet yoki harbiy qismlar yoxud harbiy muassasalar tomonidan beriladigan shaxsini tasdiqlovchi hujjat) ma’lumotlari seriyasi **№** tomonidan yilda berilgan, yashash manzili: , keyingi o’rinlarda matnda «Qarz oluvchi» deb ataluvchi ikkinchi tomonidan, mazkur shartnomani quyidagilar to’g’risida tuzdik:

1. Shartnoma mazmuni.

1.1. «Lombard» mazkur shartnoma shartlarida «Qarz oluvchi»ga **()** so’m miqdorida garov asosida pul mablag’larini taqdim etadi. Mikroqarz olish uchun «Lombard»ga garovga topshiriladigan mol-mulk tomonlar kelishuviga asosan baholanadi.

1.2. «Qarz oluvchi» mazkur shartnomaning 1.1. bandida ko’rsatilgan miqdorda olgan pul summasini, shuningdek yildagi **№** -sonli garov pattasida ko’rsatiladigan miqdordagi xisoblangan foizlarni «Lombard»ga qaytarib berish majburiyatini oladi.

1.3. Mikroqarz bo'yicha hisoblangan foizlar yillik **0,00%** hisobidan **30** kun muddatga **%** ni tashkil etib, kunlik **0%** stavkasini hosil qiladi. Mikroqarz bo‘yicha foizlar mikroqarz berilgan kundan boshlab, belgilangan foiz stavkasiga muvofiq mkroqarzning haqiqiy qoldig‘iga nisbatan har kuni hisoblanadi.

1.4. Har bir kechiktirilgan kun uchun foizlarni hisobga olgan xolda asosiy qarz xamda foiz summalaridan **%** miqdorida penya olinadi.

1.5. Shartnomaning 1.1. bandida ko’rsatilgan mikroqarz summasi, «Qarz oluvchi»ga 30 kunga , ya’ni yil muddatigacha beriladi.

1.6. Majburiyatni ta’minlash sifatida «Qarz oluvchi» garov ko’rinishida, unga mulkiy egalik xuquqida tegishli bo’lgan mulkni (keyinchalik - mulk) taqdim etadi, ya’ni:

1.7. O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksning **289**-moddasiga muvofiq, lombardga qo’yilgan garovlar tug’risida shartnoma lombard tomonidan garov pattasi berish yuli bilan rasmiylashtiriladi.

2. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

2.1. «Lombard» mazkur shartnomaning 1.1. bandida ko’rsatilgan pul mablag’larini «Qarz oluvchi»ga ushbu shartnomani imzolangan paytidan boshlab 1 kun ichida taqdim etish majburiyatini oladi.

2.2. Mikroqarz taqdim etilgan sana deb mazkur shartnoma imzolangan sana xisoblanadi.

2.3. Shartnomaning 1.5. bandida o’rnatilgan muddat tugaganida «Qarz oluvchi» mazkur shartnomaning 2.4. bandida belgilangan tartib va shartlarida «Lombard»dan mazkur shartnoma bo’yicha olingan mikroqarz summasini qaytarish, shuningdek «Lombard»ga to’lanadigan foizlarni to’lash majburiyatni oladi.

2.4. Olingan mikroqarz summasini qaytarib berish «Qarz oluvchi» tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi: mazkur shartnomaning 1.5. bandida ko’rsatilgan mikroqarz muddati o’tganidan keyingi kundan kechiktirmasdan, «Qarz oluvchi» pul mablag’larni quyidagi manzilda joylashgan «Lombard» kassasiga yoki quyidagi xisob rakamiga to’lashi/utkazilishi lozim: «Qarz oluvchi» **MChJga** birinchi navbatda pul mablag’laridan foydalangan butun muddat ichidagi mikroqarz summasidan **%** xisobidan foizlar summasi bilan 100% mikroqarz summasini bir vaqtning o’zida to’lashi lozim.

2.5. «Qarz oluvchi» tomonidan «Lombard» mikroqarz summasini qaytarish buyicha o’z majburiyatlarini bajarish sanasi deb «Lombard» kassasiga yoki xisob raqamiga pul mablag’lari kelib tushgan sana xisoblanadi.

2.6. «Qarz oluvchi»ning arizasiga va tomonlarning o’zaro kelishuviga asosan, mikroqarzdan foydalanish muddati uzaytirilishi mumkin. Bunda mikroqarz, mazkur shartnomaning 1.3 bandida ko’rsatilgan xisoblangan foizlarni o’z vaqtida to’lagan, shuningdek shartnomani 4.2.1 va 4.4.1. bandlarini imzolagan xolatdagina ikki martadan ko’p bulmagan muddatga uzaytiriladi. Uzaytirilgan mikroqarz buyicha umumiy muddat - 90 (to'qson) kundan oshmasligi kerak.

2.7. Mikroqarz muddatini shartnomaning 4.2.1 va 4.3.1 bandlarida ko’rsatilgandek «Qarz oluvchi»ning imzosiz uzaytirilishi mumkin, bunda «Qarz oluvchi» va (yoki) uchinchi shaxs tomonidan ushbu shartnomada ko’rsatilgan foiz va (yoki) jarimalarni o’z vaqtida to’langan bo’lishi lozim.

2.8. «Qarz oluvchi» tomonidan mazkur shartnomaning 2.4. bandida ko’rsatilgan majburiyatlarini o’z vaqtida bajarilmagan yoki bosh tortgan xolatda, «Lombard» imtiyozli bir oy muddati o’tgandan so’ng, mazkur shartnomaning 1.6. bandida ko’rsatilgan «Qarz oluvchi»ning garovga qo’yilgan mulkini, notariusning ijro varaqasiga asosan qonunchilikda belgilangan tartibda sotish huquqiga ega. Shu bilan birga, "Qarz oluvchi" ushbu shartnomaga ilova qilingan solishtirish dalolatnomani imzolaydi, solishtirish dalolatnomasida "Qarz oluvchi" tomonidan majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilmagan yoki bosh tortgan taqdirda ushbu shartnoma bo'yicha shakllanadigan qarz miqdori ko'rsatiladi. (18.01.2002 y., 26-sonli VMQ ilovasiga muvofiq).

2.9. Imtiyozli bir oy muddat ichida «Qarz oluvchi» quyidagi majburiyatlarini to'liq bajargan xolatdagina o'z mulkini garovdan qaytarib olish huquqiga ega:
- garov mulkiga qaratish to'g'risidagi ijro xujjatini olish bo'yicha xarajatlarni qoplaganda;
- jarima summasini to'laganda;
- mikroqarz buyicha foizlarni to'laganda;
- asosiy mikroqarz summasini to'laganda.

Aks xolda «Lombard» garovga qo'yilgan mulkni ijro xujjati asosida mazkur shartnomaning 2.7 bandiga asosan sotish huquqiga ega.
2.10. Mikroqarzni, shuningdek xisoblangan foizlarni qoplash bo'yicha o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarilgan xolatda, «Lombard» mazkur shartnomaning 1.6. bandida ko'rsatilgan garovga qo'yilgan «Qarz oluvchi»ning mulkini qaytarib berish majburiyatini oladi.
2.11. «Lombard»ga, «Qarz oluvchi» mazkur shartnomada belgilangan qaytarish muddati kelgunga qadar, mikroqarz summasini qaytarish huquqiga ega. Bu xolatda «Qarz oluvchi» puldagi mikroqarz summasi bilan bir vaqtda belgilangan tariflar asosida «Lombard»ga, mikroqarzdan foydalangan muddati uchun foizlarni tulaydi.
2.12. Garov reestriga berilgan mikroqarzlar to'g'risida ma'lumotni «Qarz oluvchi»ning talabi asosida kiritish (mikroqarz berish arizasida ko'rsatilgan) xolatida, «Lombard» ushbu xizmat uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.06.2014 y. dagi №155 sonli qarorining 5 bandiga asosan, bazaviy hisoblash miqdorining 10%, garov reestri bo'yicha ko'chirmalarni taqdim etish uchun esa bazaviy hisoblash miqdorining 5% to'lovlarni «Qarz oluvchi»dan undirib olish huquqiga ega.
2.13. O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuniga va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan lombard jismoniy shaxslarni identifikatsiya qilish maqsadida, lozim darajada chora-tadbirlarni ko'rishga haqli (operatsiyalarni to'xtatib turish, ishga solmay to'xtatib qo'yish va hokazo).
2.14. «Lombard» SMS-xabarnoma formatdagi bildirishnoma yuborish huquqiga ega.
2.15. Buyumga shikast yetkazilganda, «Lombard» mijozning xoxishiga ko'ra, yetkazilgan shikastni o'z hisobidan bartaraf etadi yoki garov pattasida ko'rsatilgan buyumning baholangan summasida to'lab beradi, bu holda ushbu buyum «Lombard»ning mulkiga o'tadi.
2.16. «Lombard» garovga qo'yilgan mulkni, mikroqarz muddati davomida o'z xisobidan sugurtalash majburiyati o'z zimmasiga oladi.
2.17. «Lombard» garovga qo'yilgan mulkni mikroqarz muddati davomida, saqlash majburiyatini oladi. Agarda mijozdan qabul qilingan buyum yo'qotilsa, «Lombard» mazkur shartnomaning garov pattasida ko'rsatilgan buyumning baholangan summasida to'lab beradi.
2.18. Barcha operatsiyalar (garov, qayta garov, sotish, saqlash uchun topshirish) faqat mijozning shaxsini tasdiqlovchi xujjat ko'rsatgan xolda bajariladi.
2.19. «Qarz oluvchi», «Lombard»ga shartnoma buyicha majburiyatlarni bajarish uchun shaxsiy ma'lumotlarini aralash ishlov berish orkali kayta ishlashga rozilik beradi, shu jumladan yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), chiqarib olish, foydalanish, uzatish (ta'minlash, berish), egasizlantirish, blokirovka qilish, o'chirish, yo'k qilish.
2.20. «Lombard», «Qarz oluvchi»ga O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi amaldagi qonunchiligida belgilangan talablarga muvofiq «Qarz oluvchi»ning shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'rishni kafolatlaydi.

3. Boshqa shartlar.

3.1. Mazkur shartnoma xar bir tomon uchun bittadan, shuningdek notarial idoraga bir nusxa, jami uch nusxada tuzilgan.
3.2. Tomonlarning kelishuvi bo'yicha shartnoma o'zgartirilishi va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Mazkur shartnomaga barcha o'zgarishlar va qo'shimchalar yozma ravishda va tomonlar imzolangan bo'lishi lozim. Yozma shakliga rioya etmaslik har kaysi o'zgarishlar va qo'shimchalarni haqiqiy emasligiga olib keladi.
3.3. Tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi, lekin «Qarz oluvchi» mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini ta'minlovchisi bo'lgan garov buyumlarni xaqidagi ma'lumotlarni haqqoniyliga shaxsan javobgar xisoblanadi.
3.4. Mazkur shartnoma bo'yicha hisoblangan foiz, komissiya va neustoykaning jami summasi asosiy qarz summasining yarmidan ko'p miqdoridan oshmasligi lozim.
3.5. Mazkur shartnoma bo'yicha vujudga keladigan nizolarni tomonlar muzokara olib borish yo'li bilan xal etishi lozim. Agar tomonlar muzokara vaqtida kelishuvga kela olmasalar, unda nizo o'rnatilgan me'yoriy xujjatlar talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan sudda ko'rib chiqilishi lozim.
3.6. Shartnoma tomonlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amal qiladi.

4. Қўшимча шартлар.

4.1. Tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan foiz ___% gacha kamaytirildi/oshirildi.
4.2. "___" _____ 20__yildagi **№**-sonli mikroqarz shartnomasiga qo'shimcha kelishuv.

4.2.1. Tomonlarning o’zaro kelishuviga asosan mikroqarz "___" _____ 20___ yildan "___" _____ 20___ yilgacha uzaytiriladi.

Raxbar: _____ (imzo)

Qarz oluvchi: _____ (imzo)

Buxgalter-nazoratchi: _____ (imzo)

4.3. Tomonlarning o’zaro kelishuviga asosan foiz___% gacha kamaytirildi/oshirildi.
4.4. "___" _____ 20__yildagi **№**-sonli mikroqarz shartnomasiga qo’shimcha kelishuv.
4.4.1. Tomonlarning o’zaro kelishuviga asosan mikroqarz "___" _____ 20___ yildan "___" _____ 20___ yilgacha uzaytiriladi.

Raxbar: _____ (imzo)

Qarz oluvchi: _____ (имзо)

Buxgalter-nazoratchi: _____ (imzo)

5. Tomonlarning manzil va rekvizitlari

LOMBARD

Rekvizitlar:
Nomi:
Manzil:
Rekvizitlar:

Tel:

Raxbar: _____ (imzo)

QARZ OLUVCHI

FISH:
Pasport ma'lumot: , берилган сана й. амал килиш сана йгача.
Manzil: .
INN:
Tel:

Qarz oluvchi: ✓ _____ (imzo)